

ISSN 2181-9831


WORLD SOCIAL SCIENCE

Scientific - practical journal

*Ijtimoiy-
gumanitar
fanlar
yo'nalishi*

*Направление
социально-
гуманитарных
наук*

*Social-
humanitarian
sciences*



2
2021

10 (OAR)

ISSN 2181-9831

WORLD SOCIAL SCIENCE

Scientific – practical journal

Scientific-practical journal of "Science of world"

Partner:

"Ferghana branch of Tashkent University of Information Technology"

	Head editor:
2021 №2(8)	F.N.Farxodjonova
	Members of the editorial:
Social-humanitarian sciences	M.Ismoilov- prof. (NameCI) I.Ergashev- prof. (NUUz) I.Bekmirzayev – prof.(IIA) F.Abduraxmonov - prof. (TTI) Y.Apaqov- DSc(NameCI) M.Mamatov - DSc (FSU) D.Normatova - ass.prof. (FSU) Z.Abduraxmonova - ass.prof. (NUUz) L.Muxammadjonova - ass.prof. (NUUz)
Направление социально-гуманитарных наук	T.Chariyev - ass.prof. (SCUz) A. Normirzayev - ass.prof. (NameCI) I.Soliyev - ass.prof. (NameCI) A.Soxadaliyev - ass.prof. (NameCI) M.Teshaboyev - PhD (FBTUIT) D.Nuraliyeva - (FSU) N.Atabayeva – (TACI) E.Jumaniyozova – (TACI)
Ijtimoiy-gumanitar fanlar yo'nalishi	F.Tursunova - (TIF) M.Abdusamidov – (NUUz) Y.Babajanova – (TACI)
	Responsible editor: U.Karimov

Remember: Author responsible to the right articles.

© OOO "Science of world", 2021

CONTENT

PEDAGOGICAL SCIENCES	
Н.Абдулитонова. Уқувчиларида зарарли одатларга қарши иммунитетта эгаллик қилишни шакллантириши йўллари.....	3
Бобосна З., Хусанова М. Талабаларда график саводхонлик, малака ва кўникмаларни таркиб топтиришнинг педагогик асослари.....	4
Джалилова Р. Баллий таълимда инсон коматини чизикли конструктив тасвирлаш.....	6
Мансуров М.Т., Раупов Ч.С. Қурилиш тизимлари ишончлилик назариясининг асосий терминологик тушунчалари.....	8
Сарсенбаева Р. Таълим муассасаларида ўқув машғулотлари жараёнини оптималлаштириши йўллари.....	10
Усмонов Ш., Усмонова М. Мактабгача ёшда мулоқот маданиятини шакллантиришнинг педагогик-психологик шарт-шароитлари.....	12
Yuldashева G., Norxodjayeва S. Zamonaviy ta'lim tizimida kompyuter grafikasining tutgan o'rni va ahamiyati.....	13
Йўлдашева Г., Комилтоне З. Замонавий таълим тизимига илмий-методологик ёндашнинг усуллари.....	15
ECONOMICAL AND JURIDICAL SCIENCES	
Ahmadova L. Biz korrupsiyaga qarshimiz.....	17
Бабатжанов Т. Тижорат банкларда пластик картточкалар бўйича операциялар ҳисобини такомиллаштириши.....	19
Glyasov SH. O'zbekiston respublikasida ayollar huquqlarini himoya qilishning huquqiy asoslari.....	26
Тўлқунов Б. Тижорат банклари мижозларининг кредит тўловига даёқатлигини баҳолаш амалиётини илғор хориж тажрибаси асосида такомиллаштириши.....	27
Умурзаков Ф. Ўзбекистонда пул массасини инфляциярон йўл билан ошириши йўллари.....	31
Хайдаров А. Тижорат банклари ликвидлигини баҳолаш ва бошқаришнинг такомиллаштириши.....	33
Шамирзаев А. Тижорат банкларида кредит операциялари ҳисоби ва уни такомиллаштириши.....	38
PHILOSOPHICAL SCIENCES	
Abdullayeva N. Kichik maktab ёшдаги ўқувчиларда диққатни ривожлантиришнинг психологик хусусиятлари.....	45
Оламгиров О. Трасологик экспертизаларни ўтказишдаги хатолар.....	47
Palvanova H., G'affarova D. The peculiarities of Shakespearean tragedies.....	48
Qayumov B. O'quvchilarni mustaqillik tafakkurini rivojlantirishda huquqiy tarbiya mexanizmi.....	50
Содиқов Ж. Банк хизматлари бозорида банклар рақобатбардорлигини ошириши.....	52
Усмонов Ш., Мансуркабиров А. Шахс баркамоллигида толерантликнинг ўрни.....	55
Усмонов Ш., Хамидхонова У. Ўқувчи ёшларини толерантлик руҳида тарбиялаш.....	56
Teshayev N. Vatanparavarlik - yuksak ma'naviy-axloqiy fazilat.....	58
Yuldashев T. Milliy tatiwliq - Ozbekstan xalqlari bawrikenliginin joqari darejedegi korinisi.....	59
Шарипов А. Жамият маънавий ҳаётида стратификацион жараёнлар ва иктимоний ҳамкорлик формаларининг ўрни.....	63
Шокиров М.Р. Экологик маданият – соғлом тараққиёт омилли.....	65
PHILOLOGICAL SCIENCES	
BabaJanova Y. Ispol'zovanie proyektной metodiki na urokax angliyskogo yazyka.....	67
Niyazova N. The role of grammar skill in communicative-oriented teaching of English language.....	68
Nuriddinova M. Some problems of the training English language.....	70

Teshayev N.N., dotsent
Buxoro davlat universiteti

Yosh avlodning ma'naviyatini shakllantirishda vatanparvarlik tarbiyasi barcha davrlarda ham hal qiluvchi ahamiyat kasb etib kelgan. Mustaqil mamlakatimiz ijtimoiy hayotining turli sohalarida bugungi kunda chuqur o'zgarishlar ro'y berayotganligi, ayniqsa, ma'naviy sohada juda katta imkoniyatlar yaratilganligi quvonarli holdir. Zero, bu sohada bajariladigan ishlar, tadqiq qilishga muhtoj muammolar juda ko'p. Bu dolzarb muammolardan biri, milliy va vatanparvarlik tarbiya masalasidir. Albatta, xalqimizning tarbiya borasidagi yetuk milliy ma'naviyati hamma vaqt umuminsoniy qadriyatlarining tarkibiy qismi bo'lib kelgan.

Shuning uchun ham, o'sib kelayotgan yosh avlod ongida keksa avlod dono tajribasini singdirish, imoniyl fuzilatlarini shakllantirish va rivojlantirish, Vatan va millat oldidagi burch va mas'uliyatni his qilishga o'rgatish, qonunlarga rioya etish fuzilatlarini qaror toptirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki Vatanga sodiqlik, vatanparvarlik o'zining qudratli ildizlari bilan oila, avlod-ajdodlarning or-nomusiga chuqur ehtirom bilan qarashga, insonning o'z vijdoni va burchiga sodiqligiga borib taqaladi. O'zbek xalqining yuksak milliy qadriyatlari vatanparvarlik, milliy g'urumi ma'naviy yuksaltirish, jamiyat ravnaqi yo'lidagi qiyinchiliklarni yengib o'tishda yordam beradi. Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Biz ajdodlarimizning yorqin xotirasini asrab-avaylab, qalbimizda, yuragimizda abodiy saqlaymiz. Bukilmas iroda, fidoyilik va jasorat namunasini amalda namoyon etib, o'z hayotini ariz Vatanimizning har tomonlama ravnaq topishiga bag'ishlagan ustoz va murabbiylarimiz, zamondoshlarimiz bilan biz cheksiz faxrlanamiz"[1].

Biz ana shunday vatanparvar, komil insonlarni tayyorlashga mas'ulmiz. Bugun mamlakatda "sog'lom avlod", "barkamol avlod" va "komil inson" tarbiyasi yo'nalishida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar dasturlarida ham mustaqillikni mustahkamlash, Vatan himoyasi vazifalari o'z ifodasini topgan Vatanimizda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini rivojlantirish taraqqiyotimizning bosh kaliti hisoblanadi. Ana shunday ulkan vazifa va mas'uliyat xalqimizdan bir tomondan, ma'naviy yangilanish jarayonini to'liq idrok etishni, ikkinchi tomondan esa, demokratik jamiyat qurish va unga tayinishda barkamol avlod masalasi ushbu mavzuning muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatib turibdi. Hozirgi murakkab va globallashuv zamonda mamlakatimizni turli ishtaki va tashqi xavflardan asrash, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarini modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish bilan bog'liq maqsadlarimizga uyg'un va hamohang ravishda hayotning o'zi oldimizga yangidan yangi vazifalarni qo'yimoqda. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning quyidagi fikrlari diqqatga sazovor: "Ayni vaqtda halol va samarali mehnati, ilmiy-ijodiy yutuqlari, Vatanga sadoqatli xizmati bilan barchaga o'rnak

bo'layotgan mard o'g'lonlarimizni qo'llab-quvvatlash va mg'batlantirish davlatimiz va jamiyatimizning e'tibor markazida bo'lishi zarur"[2].

Hozirgi jadal rivojlanish davrida butun jahon hamjamiyati bilan hamnafas bo'lish, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar, iqtisodiy, siyosiy o'zgarishlar, geopolitik harakatlarni doimiy navishda nafaqat kuzatib borish, balki o'z ongiga ham singdira olishi, to'g'ri xulosa chiqarish qobiliyatini yuksaltirishi va hayotga o'z o'rnida tatbiq qilishi zamonaviy yetuk shaxs uchun juda muhimdir. Bunda albatta tarbiyalanayotgan yosh kadrlarning puxta egallagan bilimlari, axborot almashish qobiliyati, zamonaviy texnologiyalardan oqilona foydalana olishi jahon mamlakatlari bilan yuz berayotgan voqea-hodisalarni tahlil qilish imkoniyatini beradi. Bunda albatta yoshlarning zamonaviy texnologiyalar yordamida Vatanimizning rivojlanishiga xizmat qila oladigan eng zarur va unumli axborotlarni ajrata olish qobiliyatiga ega bo'lishi talab etiladi. Buning uchun esa ta'lim davrining ilk yillaridanoq yosh avlodga vatanparvarlik ruhini singdira olish, o'z tug'ilib o'sgan yurtining ravnaqini ko'zlay bilishga o'rgatish, kerak bo'lsa mahalladan, yashab turgan joyidan boshlab maqsadga muvofiq deb hisoblasak, mablag'a bo'lmaydi. Shu sababdan yurtimizda mahallalarga katta e'tibor berilib kelimoqda.

Ajdodlarimizning Vatan ravnaqi, tinchligi yo'lida amalga oshirgan yurishlari, kindik qoni to'kilgan tuprog'ining har bir qarich yerini saqlab qolish uchun olib borgan kurash va yo'qotishlari, mustaqillikka erishguncha davr mobaynida bosib o'tgan "eng mashaqqatli yo'lning asl mohiyatini anglash va shu tariqa o'tinish tarixini o'rganish yosh avlod uchun vatanparvarlik tushunchasini chuqur anglab yetishlarida asosiy omillardan hisoblanadi. Zero, Shavkat Mirziyoyevning "Inson imoni-e'tiqodli bo'lsa, yurtiga sodiq bo'lib xizmat qilsa, u haqiqiy vatanparvar bo'ladi"[3] - degan oqilona gaplari ajdodlarimizning o'z ona Vatani ravnaqi uchun mardosavor harakatlari barcha yosh avlodga o'rnak vazifasini o'tab, ular ongida vatanparvarlik tuyg'usini ildiz otishiga xizmat qilib kelmoqda. Ma'lumki, vatanparvarlik dunyodagi eng oliy tuyg'ulardan biridir. Vatanparvar insongina Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, yurt tinchligiga xizmat qilishga o'zining hayotini bag'ishlaydi, o'zining ma'naviy kamoloti uchun yuksak mas'uliyatni his etishga, o'z manfaatlarini shu yurt, shu xalq manfaatlari bilan uyg'unlashtirib yashashga da'vat etadi. Darhaqiqat, ularning barchasi vatanparvarlik tuyg'usida namoyon bo'ladi. O'z kindik qoni to'kilgan, ota-bobolari xoki yotgan ona yurtini dunyoga tengsiz, muqaddas Vatan deb biladigan barkamol avlodning maqsad-muddolari aniq, g'unur va iftixori yuksak bo'ladi. Shuning uchun ham har qaysi fuqaro o'z mamlakatining xalqaro hamjamiyat va badavlat davlatlar qatoriga ko'tarilishidan manfaatdor ekanligini his qilmog'i, tushunib etmog'i lozim.

Hozirgi vaqtda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlohtlarning pirovard maqsadi, xalqimizning ana shunday orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish, unga har tomonlama munosib turmash sharoitini yaratib berishdan iborat. Bu maqsadga erishishga barcha imkoniyatlar etarli: tabiiy boyliklar, unumdor yerlar, katta iqtisodiy, haqiqiy, ilmiy-texnikaviy va ma'naviy salohiyat. Eng asosiysi, bu zaminida ana shu farovon hayotni o'z kuchi va aql-zakovati bilan harpo etishga qodir bo'lgan mehnatsevar va iste'dodli xalq yashaydi. Oldimizda turgan muhim vazifa – ana shu yuksak tashunchalar bilan birga milliy g'oyamizning uzviy, tarkibiy qismlarini tashkil etadigan, komil inson, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik, dinlararo bog'rikenglik kabi tamoyillarning mazmun-mohiyatini bugungi kunda mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy-ma'rifiy, ta'lim-tarbiya ishlarini markaziga qo'yish, ularni yangi bosqichga ko'tarish, yosh avlodni har tomonlama mustaqil fikrlaydigan yetuk dunyoqarash egalarini qilib tarbiyalash.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlohtlar samaradorligi xalqimiz ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning chuqur o'rganilishi, milliy qadriyatlarimizning saqlanishi, madaniyat, san'at rivoji jamiyat tafakkurining o'zgarishi hamda yuksalishi bilan bog'liq. O'z haq-huqqaqini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayyandigan har bir masalaga mustaqil yondashib oladigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlarini bilan uyg'un holda ko'radigan, har jihatdan barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi

yillarida xalqimiz uchun hal qiluvchi masalaga aylangan Vatan, xalq manfaatlarini uchun fidokorona kurashuvchi kishigina haqiqiy vatanparvardir.

Haqiqiy vatanparvar inson takabburlikka, faqat o'z manfaatini o'ylovchi shaxs bo'lishga mutlaqo yo'l qo'ymaydi va xalqidan o'z manfaatini ustun qo'ymaydi, har qanday vaqt xalq bilan bir jon, bir tan bo'ladi. Agar yoshlar o'z ona-Vatanini sevmasa, unga sadoqat bilan qaramasa, haqiqiy barkamol inson bo'la olmaydi. Ajdodlarimizning yuksak ma'naviyati, vatanparvarligi bizga har jihatdan yuksak ibrat va namunadir. Ularning tarixda ko'rsatgan mislsiz qahramonliklari, hatto ki bir hovuch Vatan tuprog'i uchun shirin jonlarini qurban qilishdek jasoratlari, kelajak avlodlarga meros qilib qoldirgan bebaho ma'naviy-madaniy meroslari, yodgorliklari yosh avlodni ular kabi vatanparvar, yuksak ma'naviyatli bo'lib kamol topishni talab etadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar Vatan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega dolzarb masalalarni hal qilishda faollik ko'rsatishlari muhimdir. Hozirda uning iqtisodiy mustahkam asosini harpo etishda dolzarb masalalar etilib chiqdiki, bularni hal etishda yoshlarning o'z roli nihoyatda kattadir. Bular yangi ish joylarini harpo etish, yangi va yanada yangi mehnat qurollarini yaratish, jamiyat ehtiyoji bilan bog'liq ko'plab mahsulotlarni ishlab chiqarish va shu kabi ko'plab dolzarb masalalar bilan bog'liqdir. Yoshlar bu jamiyatning kelajagi, Vatanni taraqqiyoti uchun mehnat qiluvchi juda katta qatlam hisoblanadi. Ularning faol mehnatlari tufayli jamiyatimiz, davlatimiz rivojlanadi va bundan-da ham katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini qurish va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. //Xalq so'zi, 2016 yil, 14 dekabr.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Kamolot" yoshlar ijtimoiy harakatining IV qurultoyidagi nutqi. //Xalq so'zi, 2017 yil, 30 iyun.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzusidagi anjumandagi so'zlagan nutqi. //Xalq so'zi, 15 iyun, 2017 yil.

MILLIY TATIWLIQ – O'ZBEKISTAN XALQLARI BAWRIKEŃLIGINIŃ JOQARI DAREJEDEGI KÖRINISI

Tazabay Yuldashov, magistrant
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Аннотация: На данной статье разработана философский анализ политики по обеспечению мира между народами и укрепление отношения между нациями в Узбекистане.

Ключевые слова: Народ, межэтнические отношения, национальная проблема, толерантность, народ, национальная политика.

Millat ham millatlararalq qatnashlar masalesi siyosiy tunde ahmiyethi orin tutadi. Demokratiyalq prinsipferge, milliy ham ulwira insanilyq qadriyatlar uyg'usligina trykarlangan milliy siyosat millette, milliy qatnashlarga mamleket rawajlanivini ayriqsha sharti sipatinda inbur qarataadi. Hesh bir kopmilletli mamlekette milletlaralq qatnashlardi jolga qoymay turip, rawajlanivga erisip bolmaydi. Milletlaralq janyeller, albette, mamleketlerdin rawajlanivina soqqi beredi, haddan taydiradi. "Millat" tusimgine aniqlama berwde

harqiyli ko'z-qarashlar bar. Ingliz filosofi Ernest Geldner "millett" insan yaratqan, ol insan ni ham sanamni jernist, rus alimi L.Lomonin pikirinshe "millette tyusulitk insanqa tusivilwiran berilish ham onin putin omni dawrasinda ozgermey qaladi" [5:124]. Ol jinis siyaqli bekkem. Sonin menen burge bul pikardan beshqada harqiyli tusimkler ilgerni surilmekte. Rus alimi V.A.Toshkovin pikirinshe "Millat ilmiy tusimik emes, bul siyosiy uran ham bag'larlaw usul" [6:52] dep esaplaydi. Buringi Awqam dawrasinda millette taryp berwde klasliq ko'z-qarashlar istin edi.